

Bismillohir-Rahmonir-Rahim

Chu yo'ndum xomai mushkin shamoma[1],
Qilay deb Haq oti birla zebnoma.
Taolollah zihi, xalloqi MaKjbud[2]
Ki, maxluqot andin bo'ldi mavjud.
Yo'q erdi har ne bor ul qildi izhor,
Borin yo'q aylabon ham bo'lg'usi bor.
Qilib barhaq ulusqa anbiyosi,
Muhammad barchasining peshvosi.
Munga yuz ming salom andin damodam,
Yana avlodiya ashobiga ham.

Kitob Nazmining Sababi

Qilur arz ushbu vodiy rahnamoyi.
G'aribi benavo, yaKjni Navoiy
Ki, chun ofoq shohi davlatidin,
Aning ham tarbiyat, ham himmatidin.
Ne shoh Sulton Husayn, ul shohi G'oziy,
Mamolik shahlarining sarfarozi.
Ki, ming yil olam ichra shohi bo'lsun,
Salotin bandai dargohi bo'lsun.
Mening nazmim yoyildi olam ichra,
Ko'p ofat soldi xayli odam ichra.
Birov bir kun dedi aylab nishote
Kim, ul qilmish bino oliy rabote.
Musofirg'a har uy bir turfa manzil
Ki, ham oromu ham kom anda hosil.
Eshittim bazmining bir nuqtadoni[3],
Shohi sohibqiron jon darmiyoni.
Demish: ne sud gar bir uyni tuzmish
Ki, nazmi shaynidin ko'p uyni buzmish.
O'qug'on el aning sheKjrini payvast,
Tilar bo'lg'ay hamisha oshiqu mast.
Solib islomu din uyiga oshub,
Binoyi xayr butkarmak ne mahsub.
Tushub bu nuqtadin jismim aro pech,
Chu bildim, chin emish dam urmadim hech.
Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur
Ki, bo'lg'ay dinu islom uyi maKjmur.
Nekim, din ahlig'a bo'lg'ay zarurat,
Bari tutqay ani bilganacha surat.
Ham etkaymen burun sharhi aqoyid
Ki, islom ahlig'a bergay favoyid.
Yana ham farz, ham vojib, sunnan ham,
Nekim oriz bo'lur yaxshi, yomon ham.
Ki, din ahlining o'lg'ay dilnaziri,
Musulmonlig' ishida noguziri.
Bayon qilg'aymen andoq ravshanu pok
Ki, idrok etkay oni xayli atrok.
Va lekin gohi ashg'ol erdi moneKj,
Gahi har muxtalif hol erdi moneKj.
Anga tegruki, bu fursatda nogoh,
Birovkim, erdi ko'p maKjnidin ogoh.
Maqomu mavlidi oning Samarqand[4]
Ki, nuzhat nchradur firdavs monand.
Buyoi o'lmakka kishvardin etishti,
Surushi charxi axzardin etishti.
Ko'ngul mail aylab oning xidmatig'a,
Musharraf qildim o'zni suhbatig'a.
Bo'lur erdi maoniydin guharposh,
So'z asnosida bu navKj ayladi fosh.
Ki, bir kun Xojaekim[5] charxi oli(y),
Hilolin istar oning oti naKjli.
Ravishda Shibliyu[6] Zunnun[7]g'a foyiq,

Ubaydulloh[8] deb otin xaloyiq.
Kim, uldur peshvoyi ahli irshod,
Bu irshod etti sandin aylabon yod.
Kim, ul ko'p nazm derga bo'ldi rog'ib,
Bu yanglig' nazm ham erdi munosib.
Chu qildi Xojaning amriga taqdir,
Ul erdikim, burunroq bo'ldi tahrir.
Ki, men der erdim aytay ulcha maqdur,
Vale moneKjdin erdim anda maKjzur.
Chu so'rди Iso anfosi bu damni,
Ham ul dam azmig'a yo'ndum qalamni.
Bu so'zning sidqu kizbi kov-kovi,
Adab ermas chu sodiq erdi roviy.
Chu lobud nuktalar malhuz bo'lgay,
Umid ulkim, ulus mahzuz bo'lg'ay.
Navoiydin chu topqaylar navoe,
Aning ruhiga ham etgay duoe.

Shariatda Ahkom Sharhi Va Aqoid Va Qavoidi Adosi

Burun bilkim, erur sharKj ichra ahkom,
Ki, bilmak oni bo'lmish elga nokom.
Ul ahkom ikki yanglig' bo'ldi mavjud,
Ki, bordur har birida o'zga maqsud.
Birisidin murod o'ldi aqida,
Amal matlub bo'ldi ul birida.
Aqoid dedilar avvalgiga ism,
Ikkinchi ahkom farKjidin topib qism.
Amaldin chun burun keldi aqoyid,
Pas, andin etkuray avval favoyid.

Iymon Qoidasining Ijmoli

Burun ul nimakim, farz etti Yazdon,
Erur oqilg'a bolig' bo'lgach iymon.
Aning maKjnisidur til birla iqror,
Ko'ngul birla inonmog'lig' dag'i bor.
Tilar bo'lsang anga o'zni eturmak,
Bil olti nimaga iymon kegurmak.

Mo'man Bihilarining Tafsilil

Burun bermak tonug'luqkim, Xudovand,
Ki, ne bordur anga mislih, ne monand.
Xudoedur yaratkan budu nobud,
Ki, andin o'zga yo'qtur tengri mavjud.
Yana bilmak maloikniki, Xoliq,
Yaratibdur ibodatqa muvofiq.
Yana bilmak kitobin ham kamohni,
Qadim o'ldi dagi bori ilohiy.
Yana ham anbiyog'a qilmoq iqror,
Ki, borin elga irsol etti Jabbor[9].
Yana ulkim, bo'lur qoyim qiyomat,
Ki, ko'prak elgadur ohu nadomat.
Yana bilmakdurur bemakru tazvir,
Ki, Haqindur yamon-yaxshig'a taqdir.

Sekkiz Sifotullohkim, Aqoid Doxililur

Yana sekkiz sifatqa muKjtaqid bo'l,
Alardin har biriga ko'rguzay yo'l.
Kim, ul sekkiz erur Haqning sifoti,

Ki, boridin munazzah qildi zoti.
Erur hayyyu alimu yana qodir,
Muridu ham samiKj o'ldivu nozir.
Takallum vasfiga dag'i muvofiq,
Yana ibod afKjoliqa Xoliq.
Ne bor aning shariki, ne vaziri,
Ne bor aning sahimi, ne naziri.
Ne javhar, ne arazdur, ne makonda,
Ne voqeKjdur jihatda, ne zamonda.
Chu ermas anga hech ashyo mushobih,
Aning shaKjnindadur: "Laysaka mislih"[10].
Qadim o'ldi kalomi dag'i olam,
Erur hodis dedim bu so'zni fafham[11].

Nechakim Haq Bilmaki Aqidadindur

Yana bilkim, aqoyid ichra mutlaq,
Necha ish keldi bilmak kerak haq.
Azobi qabr erur kufr ahli xosiy,
Yana din ahlidin baKjzi bo'lsa osiy.
Yana ikki malakningdur savoli,
Yana ham ruKjyatulloh ehtimoli.
Yana haq bir sirotu, yana mezon,
Yana do'zax, yana firdavsi rizvon.
Shafoat anbiyodin ham erur haq.
Muhammad barchaning sarxayli mutlaq.
Yapa haq keldi eKjjoz anbiyoga,
Aningdekkim, karomat avliyog'a.
Yana bilgil aqoid ichra mahsub,
Ki, bo'lmas eldin amru nahi maslub.
Yana kufr anglag'il tasdiqi kohin,
Nechukkim, tengridin maKjyusu emin.

Islom Arkonining Sharhi

Angakim, bo'ldi iymon amri kirdor,
Kerak islomdin bo'lsa xabardor.
Binosin anglag'il islomning besh,
Ani bilmakka bo'lg'il fikratandesh.
Bu bsshdur - bir erur lafzi "shahodat",
Ki, ayturlar ani ahli saodat.
Erur bir bilmak ul tengrini avval,
Muhammadni aning xalqiga mursal.
Bu so'z iymon so'zida bo'ldi mazkur,
Aqoyid sharhini aylarda mastur.
Yana to'rtin dag'i aytay yako-yak,
Ki, mo'min xotirida qolmasun shak.
Saloti xams aning ikkinchisi bil,
Aning sharhini aylay emdi tafsil.

Tahorat Faroizining Adosi

Erur sharti aning avval tahorat,
Tahoratda suray avval iborat.
Tahorat ichra bilkim, to'rt erur farz,
Gar etsang istimoKj, aylay ani arz.
Yu(v)mog'liq yuzni manglay to zaqandur,
Quloqdin to quloq vajhi hasandur.
Mahosin bo'lsa onchakim, yopar yuz,
Ani g'usl aylamak, ey niyating tuz.
Iki qo'lni iki tirsak bila yu(v),
Vuzu aylarda bilkim, farz erur bu.

Yana bosh mashini ham farz bilg'il,
Valekin, to'rt ulushtin birni qilg'il.
Yu(v)mog' iki oyog'ni farz erur ham,
Iki oshug'ni ham qilmoq anga zam,

Tahorat Sunnatlarining Sharhi

VuzuKjda o'n iki ish keldi sunnat,
Birisin tasmiya[12] bil, birni niyat.
Yu(v)mog' uch qatla qo'l tirsakka tegru,
Yana bir mazmaza uch qatla ham bu.
Chu bo'ldi mazmaza qilmoq mukarrar,
Bil istinshoh ham mundoq muqarrar.
Yana tahlil qilmoq lihiyag'a zam,
Oyog' birla ilik barmog'lari ham.
Yana uch qatla aKjzoni yu(v)moq bil,
Yana boshning tamomin mash qilgil.
Yana tartib, yaKjni ulcha tahrir,
Qilindi berma lek anga tahyir.
Birov ul jumladin keldi muvolot,
Yu(v)moq, yaKjni payopay uzvni bot-bot.

VuzuKj Mustahablari

Tahorat ichra olti mustahabdur,
Eshitsin har kishi ahli talabdur.
Burun niyat, yana bilgil muvolot,
Bori bosh mashiyu tartibi odot.
Bo'yun mashini dag'i mustahab qil,
Agar qilsang saodatqa sabab bil.
Tayammundur biri, yaKjniki bunyod,
Yu(v)moqqa o'ng tarafdin qilmoq irod.

VuzuKj Noqislari

Iki yondin nekim dafKj etsa tohir,
Tahoratning bo'lur nuqsoni zohir..
Yana bpir uzvdin riym oqsa yo qon,
Vuzug'a bor alardin dag'i nuqson.
Qonasa tishki, ko'z solg'anda tolib,
Og'iz suvig'a rangin topsa g'olib.
Yo'q ersa qussakim, qon kelsa sofiy,
Ikisidur tahoratqa manofiy.
Yana qay o'ylakim, bo'lg'ay to'la fam,
Va lekin dafKj bo'lgay g'ayri balg'am.
Jununu xushsizlik, dag'i uyqu,
Ki, bo'lg'ay takyada noqisdurur bu.
Mamoz ichra bilik kulgu vuquKji,
Ki, bor aning sujudiyu rukuKji...
Bu holatlarki, mazkur o'ldi bir-bir,
Berur barcha vuzuKj holiga tag'yir...

G'uslning Faroyizi

Nimakim, g'usl qilmaqqa erur farz,
Agar sen istimoKj etsang, qilay arz.
Og'izg'a mazmaza qilmoq bilgil,
Burung'a dag'i istinshoq qilg'il.
Erur bu ikki bo'lg'ach bebahona,
Bari aKjzoga suv qilmoq ravona.

Yana g'usl ichra sunnatlar dag'i bor,
Taomil aylagil to aylay izhor.

G'uslning Sunnatlari

Ilik avval yu(v)mog'lig' ayla mafhum,
Pas, andin so'ng yu(v)moqdur uzvi maKj]lum.
Badanda gar najosat bo'lsa zohir,
Ani qilmoqdurur su(v) birla tohir.
Yana sunnatdurur qilmoq vuzuKj ham,
Yu(v)bon aKjzo quyub uch qatla su(v) ham.

Tayammum Farzlari

Tayammum farzi avval bo'ldi niyat,
Ilik tufroqqa urmak ikki navbat.
Keraktur birni yuz mashiga bilmak,
Yana ne birla mash et qo'l va tirsak.
Tayammum noqisin aylay ishorat,
Erur har neki nuqs etgay tahorat.
Ikinchi oncha su(v)g'a dastrasdur,
Kim, ul su(v) bir vuzuKj qilmaqqa basdur.

Namoz Faroyizida Olti Xorij Farzning Sharhi

Namoz ichra faroyiz, ey xiradmand,
O'n ikki nima aylabdur Xudovand.
Namozingga alardin olti doxil,
Yana oltisi xorij keldi hosil.
Bu oltidin biri qilsang ibodat,
Hadas birla najasdin bir tahorat.
Yana bir pok bo'lmoqdur makon ham,
Yana avratni qilmoqdur nihon ham.
Yana bir vaqt bilmak kecha-kunduz,
Yana bir qibla sori aylamak yuz.
Yana bir niyat etmak bo'ldi bilgil,
Namoz albatta, niyat birla qilgil.

Namoz Olti Doxili Farzining Bayoni

Chu xorij oltinni qildim ayoning,
Qilay doxilin ham xotir nishoning.
Erur avvalgisi avvalg'i takbir[13],
Qiyom o'ldi namozingda yana bir.
Yana birni yaqin bilgil qiroat.
Yana birdur rukuKj aylarda toat.
Sujud o'ldi biri, ey xilqating pok,
Yana bir qaKjdai oxir qil idrok.
Kishi bu erga istar bo'lsa maKjni,
Tashahhudgacha[14] qilmoq maks yaKjni.

Namozning Vojiblari

Namozing ichra vojib keldi etti,
Ki, sohib sharKj]din bu navKj etti.
Burun "al-hamd"[15]ni qilmoq qiroat,
Yana bir sura anga qilmoq izofat.
Yana tutmoqdurur tartib marKji,

Budur xojayi kavnayn sharKji.
Qiroat aylamak taKjyin birin bil,
Yana bir aylamak arkong'a taKjdil.
Birin el qaKjdai avval taahhud[16],
Biri bu qaKjidadin so'ngra tashahhud.

Namozning O'n Sunnatlari Va O'n Qavlisi Adosi

Namoz ichra yigirma keldi sunnat,
Kishikim qilsa ko'ydeg jong'a minnat.
Yigirmidin o'nini angla qavliy,
Yana o'nini feKjli bilmak avliy.
Burun ulki qavliydur ani bil,
Yana feKjliysi sari mayl qilg'il.
Ul o'ndin bnirini istiftoh bilgil,
"AKjuzu"[17] ish bandig'a miftoh bilgil.
Yana bil tasmiya, andin so'ng omin,
Qil andin so'ng "samiKj ollohu"[18] taKjyin.
Uchu to'rtinchida yo'q fotiha farz,
Erur sunnat bu yanglig' qildilar arz.
RukuKj va sajdada ham ikki takbir,
Iki tasbihga[19] ham berma tag'yir.

Namoz Sunnatlaridin O'n FeKjlisi Bayoni

Yana feKjliy birovgakim, bilikdur,
Quloqqacha biyik qilmoq ilikdur.
Ung ilging so'lg'a qo'ymoqtur yana so'z,
Yana sajda, erga tikmog'ing ko'z.
RukuKj ichra ilik tizga qilib yor,
Uchani tutmoq ul holatda hamvor.
Iki ovuch ne erga bo'lsa mansub,
Erur sajda aroda boshqa matlub.
Sujud aylarda paydovu nihondin,
Qorin tizdan judo tut, qo'lni yondin.
Yana so'l poshna ustida orom,
Qilmoq qibla sori moyil ibhom.
Kecha-kunduz namozekim erur farz,
Erur o'n etti rakKjat o'ylakim, qarz.

Namoz Faroiizi Rakaoti Adadi

Ikn subhu yana to'rt o'ldi peshin,
Yana asr ichra bo'ldi to'rt taKjyin.
Uchu to'rt angla, mag'rib-la ashoda,
Vali qil vitrni vojib aroda.

Namoz Sunnatlarining Rakaoti Adadi

Birovkim, kecha-kunduz qilsa toat,
Erur sunnat anga o'n ikki rakKjat.
Ikirar rakKjat o'ldi subh ila shom,
Ul ikki-to'rtar angla barcha ayyom.

Islomning Uchunchi Ruknikim, Zakotdur, Bayon Qilmoq

Zakot o'ldi uchunchi rukn bilgil,
Nechukkim, amr qilmish tengri qilg'il.

Kishi sohibnisob o'lg'uncha maKjmur,
Emaskim, haq tutubtur ani maKjzur.
Nisob o'lsa kishi moliga zohir,
Ayirmoq farz keldi qirqdin bir.
Yeturmagil angakim, mustahiqdur,
Bu ishga mustahiq bo'lg'ay muhiqdur.
Bu siym ahkomidur qilmoq tasadduq,
Yana ashyoda mundoq bil tahaquq.
Ki, har turluk yana bo'lsa jihoting,
Bahosi uzra mundoqdur zakoting.
Mavoshiyg'a bitubturlar qavoyid,
Ani ham yaxshi angla ko'rguzub jid.
Yana jamKjiki, derlar ismi xuddom,
Muqarrardur alarg'a dag'i ahkom.
Vale ermas kiyar to'n va minar ot,
Yana ham noguzir o'lg'an mis olot.
Davotu xoma yo avroqu ajzo,
Bu dastur o'lsa, bir, har navKj ashyo
Ki, onsiz bo'lmag'ay matlub hosil,
Zakot ichra emas ul shay doxil.
Vale doxili haqqulloh bilgil,
Aning imsokidin eKjroz qilg'il.
Adosida baloning raddin ayla,
Yana qilmoq sabukbor o'zni tongla.

Islomning To'rtunchi Ruknikim, Ro'zadur - Sharh Etmak

Erur to'rtunchi (rukni) islomning savm,
Ki, o'tgay kimsaga taqvo bila yavm.
Chu ro'za bo'ldi yilda bir oy,
Aning ijrosida bo'l nafsarmoy.
Ani bil subhdin to shom chog'liq,
Taomu shurbu shahvatdin yirog'liq.
Erur bu ro'zada nmyat sanga farz,
Valekin pecha avlo ayladim arz.
Navofilda vale niyatni qilmoq,
Sanga joyizdurur tushtin burunroq.
Chibin yo pashshadek har jinsi hosil,
Emas bo'g'zungga kirsra ro'za botil.
Tuzu sirka totorg'a ahli idrok,
Tengursa til uchun emas anga pok.
Yana ulkim, hijomat qilsayu qasd,
G'am ermas, ro'zag'a chun qilmamish qasd.
Gar o'tmak tiftl uchun chaynar anosi,
Ravodur gar yana yo'qtur g'izosi.
Vale bilmak keraktur ani makruh,
Kerak makruhdin xotirda anduh.
Unutib gar esang, ichsang emas g'am,
Erur ul ro'za boqiy, ey mukarram.

Favt Bulgan Ro'za Evazi Va Kafforati

Agar beboklik oyini tuzduk,
G'izoning g'ayri birla ro'za buzduk.
G'izo eb ro'za ulkim, qilsa zoyil,
Va yo nafsi bo'lib shahvatga moyil.
Kafforat oltmish miskinga itKjom,
Erur yo oltmish kun savmi nokom,
Kim, ul kunlarning o'lgay ittisolli,
Yo'q ersa solim ermas ro'za holi.
Va yo bir bandaning ko'nglin qilib shod,
Anga tengri yo'linda qilmoq ozod.

Islomning Beshinchi Ruknikim, Hajdur, Bayon Qilmoq

Beshinchi rukn bilgil hajji islom,
Chu farz o'ldi adosi keldi nokom.
Vale farziyatida shartlar bor,
Quloq tutkim, qilay borini izhor.
Birov ulkim, istitoat bo'lsa mavjud,
Anga tengruki, qilding ani maqsud.
Yana bir shart yo'l amniyati bil.
Bu chun mavjud o'lur haj niyati qil.
Yana gar dayi yo'q bo'ynungg'a lozim,
Sanga bo'lmoq bo'lur ul yo'lg'a ozim.
Yana gar yo'q ayolingdin maunat,
Ki, ul ko'rgay maosh uchun suubat.
Yana gar bermadi jismingda soneKj,
Maraz andoqki, bo'lgay yo'lg'a moneKj.
Bu mahzurot gar yo'q tebra filhol,
O'zungu do'st ko'yi tavqiga sol.
Nekim farz o'ldi bo'ynungda ado qil,
Yetib maqsadqa komingni ravo qil.

Xotima Va Kitob Tuganchining Taqriri

Manga bu nuktalarkim, bo'ldi tahrir,
Qilay itmomi taqribini taqrir.
Agarchi xutbavu fihrastida bor,
Vale ul ahddin garduni davvor.
Base oshuftalig'lar qildi hodis,
Ki, itmomig'a maKj lum o'ldi bois.
To'qiz yuz beshda[20] bir farxunda farzand,
Adab birla tavozuKj din barumand,
Ki, majlis ichra hozir erdi bir kun,
Masoyil bahsi erdi tilga maqrun.
Chu anda qobiliyat zohir erdi,
Ko'ngul bu nazmg'a tartib berdi,
Ki, shoyad anga nafKji hosil o'lg'ay,
Ko'p elga ham bu maKjni vosil o'lg'ay.
Sabab bu ishni qildi davri ayyom,
Toporga bu kitob og'oz anjom.
Chu ravshan aylar islom ahli zotin:
"Siroj ul-muslimin" qo'ymishmen otin.
Umidim ulki, harkim o'qug'ay,
Munung nuri bila ko'ngli yorug'ay.
Duo birla meni ham aylagay yod,
Ravonim ul duodin aylagay shod.

Izohlar

ب†' MaKjnosi: xushbo'y hid taratuvchi qalamni yo'ndi, demakdir.

ب†' Tarj. ar.: Tangri yuksak, unga hamma talpinuvchi ajib bir zotdir.

ب†' Shoh majlislarida qatnashib yuradigan, ziyrak va unga g'oyat yaqin (aynan jondek ichki) kim esa (fikrimizcha shahzolalardan biri) Navoiy sheKjriyati dillarni vayron va islomu din uyini alg'ov-dalg'ov qiladi, o'zi juda ko'p xayrli ishlar qiladi, lekin bulardan ne foyda, yaKjni hisobga o'tarmikan, degan fikrni aytadi. Navoiyda "Islom uyini maKjmur" etadigan bir asar yozish niyati paydo bo'ladi. Lekin turli yumushlarning ko'pligi bunga imkon bermaydi.

ب†' Samarqandda tug'ilgan va usha shaharda yashaydigan bir ulug', pokiza zot Hirotga tashrif buyuradi. Navoiy uning xizmatiga shoshadi.

ب†' Xojaekim...- Xoja Ahror nazarda tutiladi. Asl ismi Xoja Ubaydulloh, Toshkentga yaqin Bog'iston qnshlog'ida 1404 yilda tug'ilgan va 1490 yilda Samarqandda vafot etgan mashhur shayx, naqshbandiylik valiylaridan biri, yirik feodal, nufuzli din arbobi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning murshidi komili Xoja Ahror ilmida yaqinga qadar o'z haqqoniy bahosini ola olmagan

This is not registered version of TotalDocConverter

ed. H. O. A. I. n. g. e. n. e. r. a. t. e. d. b. y. y. a. s. s. i. m. i. l. a. r. s. Xoja Ahror haqida kichik bir tadqiqot yaratib, uning mohiyatini "BartolKjd o'qishlari" (1974 yilda taKjstis etilgan) nomi ostida o'tkazilib kelinayotgan Umumittifoq Sharqshunoslar konferensiyasiga taqdim etdilar (1982). MaKjruza kashfiyot darajasida qabul qilindi va 1985 yilda Moskvada "Feodalizm davridagi Yaqin va O'rta Sharqda ruhoniylar va siyosiy hayot" to'plamida nashr etildi. Unda Xoja Ahrorning agrar faoliyati, "tamg'a"ni yo'q qilishi, "shariat va dnn ahkomlari"ni buzuvchilarni jilovlab turipshi, Jomiy, Navoiy va Bobur talqinida uning shaxsiyati va faoliyatiga munosabat, asarlari, xayrli ishlari, bunyodkorligi, Ulug'bek qatliga daxlsizligi va h.k.lar birlashib, ilmdagi unga qarashni ijobiy tomonga yo'naltirish, haqiqiy bahosini olishi lozimligi qalamga olinadi.

Б† Shibliy - Abubakr Shibliy, mashhur so'fiy, komil avliyolardan. Fariduddin Attor "Tazkirat ul-avliyo"da Shibliy manoqiblaridan 60 ta naql, suhbatlarni keltiradi. 945 yilda Bag'dodda vafot etgan.

Б† Zunnun - Abulfayz Subon Zunnun Misriy, mashhur so'fiy. 859 yilda vafot etgan. Manbalarda uning kimyo fani bilan mashg'ul bo'lgani taKjkidlanadi.

Б† Ubaydullo - Xoja Ahrorning ismi.

Б† Jabbor - Ollohning sifatlaridan biri, majbur qiluvchi, demakdir.

Б† Tarj. ar.: Hech narsa unga o'xshash emas (QurKjon. "Sho'ro" surasi". 11-oyat).

Б† Tarj. ar.: bilib ol.

Б† Tasmiya - "Bismillohir rahmonir-rahim"ni aytmoq.

Б† Takbir - "Ollohu akbar" (Olloh ulug'dir)ni aytmoq.

Б† Tashahhud - "at-tahiyotu lillohi vas-salavotu vat-tayyibot. Assalomu alayka ayyuhan-nabiyyu va rahmatullohi va barakatuh. Assalomu alayno va alo ibodillohis-solihin. Ashhadu allo iloha illollohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluhu"ni aytmoq.

Б† "Al-hamd" - QurKjoni majidning birinchi "Fotiha" surasi.

Б† TaKjahhud - ahd qilmoq.

Б† "AKjuzu"БЂ "Auzu billohi minash-shaytonir-rojim"ni aytmoq.

Б† "SamiKjolloh" - "SamiKjollohu liman hamidah"ni aytmoq.

Б† Ikki tasbih - biri rukuKj tasbihi "Subhona rabbiyal-azim" va ikkinchisi sajda tasbihi "Subhona rabbiyal-aKjlo"ni aytmoq.

Б† 905 h. n. 1499/1500 melodiy yilga to'g'ri keladi